

Date: 1st November-2025

**AERVA LANATA L O'SIMLIGINING SURXONDARYO SHAROITIDA O'SISHI
VA RIVOJLANISHINI INTRODUKSION BAHOLASH**

Abdurahmonov Sanjar Bahrom o'g'li

E-mail: sanjarabdurahmonov@gmail.com

Tel:(+998919027174)



Kirish. Introduksiya natijalarini baholash bir yillik o'simliklarda G.N. Andreev (1975) va R.A.Karpisonovalar (1978), ko'p yillik o't o'simliklarda B.A. Golovkin (1973) tomonidan taklif etildi . Keyinchalik G.N. Andreev tomonidan o't o'simliklar introduksiyasi natijalarining baholanishi, ularning hayotiy shakliga asoslanib amalga oshirildi [38]. N.A. Bazilevskaya (1964) o't o'simliklarining introduksiyasi va iqlimlashtirilishi natijalarini 6-balli shkala asosida baholadi.

Respublikamiz sharoitida O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Botanika bog'ida I.V.Belolipov (1971-1983) tomonidan tavsiya etilgan o'simliklar introduksiyasining natijalarini baholash ekointroduksion usul asosida o'simliklarni introduksion baholash shkalasi ishlab chiqildi. Unga asosan, o'simliklarni introduksiya sharoitida 0 dan 5 ballgacha baholandi va 5 ballga ega bo'lgan o'simliklar introduksiya jarayonida muvaffaqiyatli o'simlik sifatida tanlandi.

Yu.M. Murdaxaev (1992), dorivor o'simliklarni respublikamiz sharoitida introduksiyasi, o'sish va rivojlanish xususiyatlarini, moslashish jarayonini ularning floristik areallari, hayotiy shakli va ekogeografik tarqalish xususiyatlariga bog'lab o'rgangan [2.53;87- b].

Keyinchalik esa B.Yo. To'xtayev (2009) tomonidan "O'zbekistonning sho'r yerlarida dorivor o'simliklarning introduksiyasi" mavzusida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlarida sho'r tuproqlarda dorivor o'simliklar introduksiyasi natijalarini baholash shkalasi ishlab chiqildi va unga asosan o'simliklarning introduksion chidamliligi, namlikka, yuqori haroratga, past haroratga nisbatan holati va tabiiy holda ko'payishiga asosiy e'tibor qaratildi .

O'simliklar introduksiyasining muvaffaqiyati undagi belgilar yig'indisi bilan baholanib, ulardan eng muhimi o'simlikning katta (ontogenetik) va kichik (mavsumiy) hayot sikllari o'tishining to'liqligi bo'lib hisoblanadi, unga o'simlik gabitusining saqlanib qolishi xos bo'ladi. Introduksiyaning muvaffaqiyatli ekanligini baholashda generativ rivojlanish, vegetativ ko'payishi, gabitusning saqlanishi, kasallik va zararkunandalar bilan zararlanishi, yilning noqulay davrlaridagi o'simliklarning yashovchanligi hisobga olinadi. *Aerva lanata.L.* ning introduksiya natijalarini tahlil qilish uchun 5 ko'rsatkichli baholashdan foydalandik (3.3-1-jadval). Turni baholash 100 balli shkala orqali amalga oshirildi. 20-39 -gacha bo'lgan ballar yig'indisi istiqbolsiz, 40-59- kam istiqbolli, 60-79 – istiqbolli va 80-100 – juda istiqbolli deb hisoblandi.

Aerva lanata.L. ni introduksiya sharoitida ko'p gul massasini hosil qila olish qobiliyati uni xo'jalik bahosining asosiy ko'rsatkichlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Qishda

Date: 1st November-2025

-20 °C haroratda o'simlikning tortiluvchi ildiz va novdadagi kurtaklarni sovuq urmaydi. Ildizlar qisqarishga hamda poya asosini yerga kiritishga qobiliyatli ildizlardir [39]

Aerva lanata.L. introduksiya sharoitida kasallik va zararkunandalar bilan zararlanmadi. B. To'xtayev tomonidan taklif qilingan sho'rlangan tuproqlarda o'simliklarni introduksion baholashning shkalasi bo'yicha ko'rsatmani hisobga olgan holda Surxondaryo viloyati sharoitiga xos bo'lgan introduksion baholash ishlab chiqildi.

Aerva lanata.L. o'simligi yuqori haroratga munosabatiga ko'ra o'rtacha chidamli, sug'orishga bo'lgan talabi o'rtacha, past haroratga munosabati chidamli, vegetativ ko'payishi kuchli tabiiy ekilish o'rtacha, kasallik va zararkunandalarga chidamli. Introduksion baholash introdusentni mazkur ekologik sharoitda o'sishi, rivojlanishi, hosildorigi va chidamliligi kabi ko'rsatkichlarining taqqoslanishi asosida amalga oshiriladi va muayyan sharoitda introduksion baholash bilan tugallanadi [2.36;45b]. Jami: 100 ball.

Shunday qilib, *Aerva lanata.L.* o'simligi introduksiya sharoitida 75 ball to'pladi va istiqbolli tur deb hisoblandi. *Aerva lanata.L.* ni Surxondaryo vohasi sharoitida yetishtirish mumkin. Urug'dan ko'paya olish qobiliyati, yuqori va past haroratlarga munosabati jihatdan mahsuldorligi, kasalliklarga chidamliligi jihatdan bu introdusent o'simlik turini dala sharoitida ko'paytirish mumkin.

1.1-jadval

Tukli erva (Aerva lanata L.) ning introduksion baholash shkalasi(ballar)

Ko'rsatkichlar	Daraja va ballar						Introduksi on baholash ball
Yuqori haroratga munosabati	chidamli	15	O'rtacha chidamli	10	chidamli	5	15
Sug'orishga bo'lgan talabi	past	15	O'rtacha	10	yuqori	5	15
Past harorat	chidamli	15	O'rtacha chidamli	10	chidamli	5	15
Вегетатив купайиши	intensiv	25	kuchli	15	Ko'karm aydi	5	25
Tabiiy ekilish	past	15	O'rtacha	10	Bo'lmay di	5	15
Kasallik va zararkunanda larga chidamliligi	zararlanma di	15	Kuchsiz zararlandi	10	Kuchli zararlan adi	5	15
Jami:							100



Date: 1st November-2025

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Axmedov U., Ergaev A., Ablazov A., Yulchiev M. dorivor o'simliklarni yetishtirish texnologiyasi. Toshkent 2009 105 S.
2. Zakirov P.K., Myasnikova L. Lekarstvennyye rasteniya tugaev Uzbekistana i perspektivnykh ispol'zovaniya // Sb. nauch. trudov Instituta botaniki AN UzSSR. – Tashkent, Fan, 1979. –S. 3-24.
3. Aerva lanata L.WWW.wikipediya

